



Tashkent State University of Economics

JOURNAL OF INTERNATIONAL FINANCE AND ACCOUNTING

ISSN
2181-1016



IQTISODIY O'SISH VA ISHSIZLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: O'ZBEKISTON MISOLIDA KORRELYATSION TAHLIL

Rasulev Alisher Fayziyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası professori,
Iqtisodiyot fanlari doktori

Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
ORCID:0009-0002-5907-2108

ECONOMIC GROWTH AND UNEMPLOYMENT RELATIONSHIP: CORRELATIONAL ANALYSIS IN THE CASE OF UZBEKISTAN

Alisher Fayziyevich Rasulev

Tashkent State University of Economics
Department of Economic Theory
Professor, Doctor of Economic Sciences

Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li Qodirov

Tashkent State University of Economics, PhD student
ORCID:0009-0002-5907-2108

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida 2010–2025 yillar davridagi yillik ko'rsatkichlardan foydalanildi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari va ishsizlik darajasi o'rtasidagi munosabat Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida baholandi. Tahlil natijalariga ko'ra, iqtisodiy o'sish va ishsizlik o'rtasida manfiy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Olingan natijalar iqtisodiy o'sishning jadallashuvi mehnat bozoridagi vaziyatning yaxshilanishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, ishsizlik, mehnat bozori, korrelyatsiya, O'zbekiston iqtisodiyoti, bandlik.

Abstract. This article examines the relationship between economic growth and unemployment in Uzbekistan based on correlation analysis. The study uses annual data for the period 2010–2025 provided by the Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan. The relationship between economic growth rates and the unemployment rate was evaluated using the Pearson correlation coefficient. The results of the analysis indicate a negative relationship between economic growth and unemployment. The findings show that an acceleration in economic growth is associated with an improvement in labor market conditions.

Keywords: economic growth, unemployment, labor market, correlation, economy of Uzbekistan, employment.

Kirish. Iqtisodiy o'sish va bandlik masalalari iqtisodiyot nazariyasining eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish hajmining kengayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va aholi farovonligining oshishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli iqtisodiy o'sish va ishsizlik o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Jahon iqtisodiy adabiyotida iqtisodiy o'sish va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik ko'pincha Okun qonuni orqali izohlanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, iqtisodiy faollikning oshishi ishsizlik darajasining pasayishiga xizmat qiladi. Biroq ushbu bog'liqlikning darajasi har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari va mehnat bozori holatiga qarab farqlanadi. Ushbu nazariy xulosalar amaliy jihatdan ko'plab mamlakatlar iqtisodiy siyosatida, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham o'z ifodasini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Jumladan, 2025-yil 19-noyabr kuni o'tkazilgan yig'ilishda ishsizlik va kambag'allik darajasini 4,5 foizgacha kamaytirish strategik vazifa etib qo'yildi. Ushbu maqsadlar iqtisodiy o'sish va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan o'rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Iqtisodiy o'sish va ishsizlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik makroiqtisodiyot nazariyasida keng o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu

yo'nalishdagi dastlabki nazariy yondashuvlardan biri A. Okun tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi ishsizlik darajasining pasayishiga olib kelishini asoslab bergan.

Keyingi ilmiy tadqiqotlarda ushbu bog'liqlik turli mamlakatlar misolida empirik jihatdan tekshirilgan. Masalan, Blanchard va Katz (1997) AQSh iqtisodiyoti bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida iqtisodiy o'sish va ishsizlik o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik mavjudligini aniqlagan. Shuningdek, Ball, Leigh va Loungani (2013) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiy inqirozlar davrida Okun qonunining kuchi o'zgarishini ko'rsatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa bu bog'liqlik har doim ham barqaror emasligi ta'kidlanadi. Xususan, iqtisodiy o'sishning bandlikka ta'siri mehnat bozori institutlari, norasmiy sektor ulushi va demografik omillarga bog'liq ravishda farqlanishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ham iqtisodiy o'sish va ishsizlik o'rtasida asosan teskari bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi, biroq bu bog'liqlikning kuchi vaqt davomida o'zgarib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan 2010–2025-yillar oralig'idagi yillik statistik ma'lumotlar bazasidan foydalanildi. Tanlangan davr mamlakatda iqtisodiy islohotlar, mehnat bozori o'zgarishlari hamda makroiqtisodiy barqarorlik jarayonlarini qamrab olishi bilan izohlanadi. Tahlil

jarayonida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida iqtisodiy o'sish sur'ati (YaIM real o'sish darajasi) hamda ishsizlik darajasi tanlab olindi. Ushbu ko'rsatkichlar iqtisodiy o'sish va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholashda keng qo'llaniladigan indikatorlar hisoblanadi.

O'zgaruvchilar o'rtasidagi statistik bog'liqlik Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida baholandi. Mazkur koeffitsiyent ikki miqdoriy o'zgaruvchi o'rtasidagi chiziqli bog'liqlikning yo'nalishi va kuchini aniqlash imkonini beradi hamda uning qiymati -1 dan +1 gacha oraliqda o'zgaradi. Musbat qiymat ijobiy bog'liqlikni, manfiy qiymat esa teskari bog'liqlikni ifodalaydi.


Bundan tashqari, empirik tahlillar Stata 15 statistik dasturiy paketidan

foydalangan holda amalga oshirildi. Ushbu dastur yordamida korrelyatsiya hisob-kitoblari, deskriptiv statistik tahlillar hamda ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish jarayonlari bajarildi. Dasturdan foydalanish tahlil natijalarining aniqligini oshirish va iqtisodiy xulosalarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotda shuningdek, natijalarni talqin qilishda iqtisodiy nazariya va ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Bu yondashuv olingan empirik natijalarning nazariy asoslanganligini tekshirish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Empirik tahlil natijalari iqtisodiy o'sish va ishsizlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni davriy yondashuv asosida yoritadi.

1-rasm. O'zbekiston YaIM o'sish sur'ati va ishsizlik darajasi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Olib borilgan empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2010–2025 yillar oralig'ida iqtisodiy o'sish sur'atlari va ishsizlik darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik barqaror va bir xil xarakterga ega emas, balki o'zgaruvchan dinamikaga ega. Nazariy jihatdan Okun qonuni iqtisodiy o'sishning jadallashuvi ishsizlikning kamayishiga olib kelishini ta'kidlaydi, ya'ni ushbu ikki ko'rsatkich o'rtasida teskari munosabat mavjudligi nazarda tutiladi.

Tahlil natijalarini davriy yondashuv asosida uchta bosqichga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi.

Birinchi bosqich (2010–2016 yillar) nisbatan barqaror iqtisodiy o'sish bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda YaIM o'sish sur'atlari 6,7% dan 8,1% gacha bo'lgan oraliqda saqlangan bo'lib, ishsizlik darajasi esa 4,9%–5,4% diapazonida tebranib turgan. Bu holat iqtisodiy o'sish mavjud bo'lsa-da, uning bandlik ko'rsatkichlariga to'liq va kuchli ta'sir ko'rsatmaganini, ya'ni o'sishning

mehnat bozori bilan bog'lanishi cheklanganligini anglatadi.

Ikkinchi bosqich (2017–2020 yillar) iqtisodiy faollikning sezilarli pasayishi va mehnat bozori ko'rsatkichlarining yomonlashuvi bilan ajralib turadi. Bu davrda YaIM o'sish sur'ati 4,7% dan 1,6% gacha kamaygan bo'lsa, ishsizlik darajasi 5,8% dan 10,5% gacha oshgan. Ayniqsa, 2020 yilgi keskin pasayish iqtisodiy faollik va bandlik o'rtasidagi teskari bog'liqlikning yaqqol amaliy ifodasini ko'rsatadi.

Uchinchi bosqich (2021–2025 yillar) iqtisodiy tiklanish jarayonlari bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda YaIM o'sish sur'atlari 8,2% gacha tiklanib, keyingi yillarda 6,1%–7,7% oralig'ida barqarorlashgan. Shu bilan birga, ishsizlik darajasi asta-sekin pasayib, 9,6% dan 4,8% gacha tushgan. Mazkur tendensiya iqtisodiy o'sishning mehnat bozoriga ijobiy ta'siri mavjudligini, biroq uning natijalari darhol emas, balki ma'lum vaqt kechikishi bilan namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

1-jadval. YaIM o'sish sur'ati va ishsizlik darajasi o'rtasidagi Pearson korrelyatsiya matritsasi

Ko'rsatkichlar	YaIM o'sish sur'ati	Ishsizlik darajasi
YaIM o'sish sur'ati	1,000	-0.567
Ishsizlik darajasi	-0.567	1,000

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Stata dasturida muallif tomonidan amalga oshirildi.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, iqtisodiy o'sish va ishsizlik darajasi o'rtasidagi Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti -0,567 ni tashkil etdi. Ushbu natija o'zgaruvchilar o'rtasida o'rtacha kuchga ega bo'lgan

teskari bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni, iqtisodiy o'sish sur'atlarining ortishi ishsizlik darajasining pasayishi bilan bog'liq ekanligi kuzatiladi. Bu holat iqtisodiy nazariyada keng qo'llaniladigan Okun qonunining asosiy g'oyalari bilan ham mos keladi. Shu bilan birga,

korrelyatsiya koeffitsiyentining mutlaq qiymati birlikka teng emasligi iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda inflatsiya, investitsiyalar hajmi, demografik omillar hamda mehnat bozori institutlari kabi boshqa omillar ham ishsizlik darajasiga ta'sir ko'rsatishini bildiradi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan empirik tahlillar natijasida O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va ishsizlik o'rtasida o'rtacha kuchga ega bo'lgan manfiy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi ($r = -0,567$). Bu natija iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi ishsizlik darajasining pasayishiga olib kelishini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari Okun qonunining O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida ham qisman amal qilishini tasdiqlaydi, biroq bu bog'liqlikning to'liq va barqaror emasligi iqtisodiy tizimga xos strukturaviy omillar bilan izohlanadi.

Davriy tahlil natijalari iqtisodiy o'sish va bandlik o'rtasidagi munosabat

vaqt bo'yicha o'zgaruvchan xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, 2017–2020 yillarda iqtisodiy pasayish ishsizlikning keskin oshishiga olib kelgan bo'lsa, 2021 yildan keyingi tiklanish davrida aksincha tendensiya kuzatildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- ❖ Iqtisodiy o'sishning bandlikka ta'sirini kuchaytirish uchun mehnat bozorida tarkibiy islohotlarni davom ettirish lozim.
- ❖ Investitsiya siyosatini ishlab chiqarish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sohalarga yo'naltirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish zarur.
- ❖ Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish va rasmiy bandlikni kengaytirish iqtisodiy o'sishning ijtimoiy samaradorligini oshiradi.
- ❖ Hududiy bandlik dasturlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishning hududlar kesimida teng taqsimlanishi ta'minlanishi kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2010–2025). <https://stat.uz>
2. Okun, A. M. (1962). Potential GNP: Its Measurement and Significance. Proceedings of the American Statistical Association.
3. Blanchard, O., & Katz, L. (1997). What We Know and Do Not Know About the Natural Rate of Unemployment. Brookings Papers on Economic Activity.
4. Ball, L., Leigh, D., & Loungani, P. (2013). Okun's Law: Fit at Fifty? IMF Working Paper.
5. World Bank. (2023). World Development Indicators. <https://data.worldbank.org>